


## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.


2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 31 288 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 21 298 ta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

**2026- yil 1- aprel holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 21 298 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,7 % ni tashkil etdi.

**2026- yil 1- aprel holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da**



2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (45,9 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,9 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.


**2026- yil 1- aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 14 096,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda, savdo xizmatlariga (25,0 %), transport xizmatlariga (23,7 %), moliyaviy xizmatlariga (18,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlariga (3,9 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2026- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, % da**



2026- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 14096,4 mlrd. so‘mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2025- yil yanvar-mart) choragiga nisbatan xizmatlar hajmi 2 526,2 mlrd. so‘mga ko‘paydi.

Joriy yilning (yanvar- mart) oldingi choragida nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘shishiga transport xizmatlar (387,2 mlrd. so‘mga), savdo xizmatlari (380,5 mlrd. so‘mga), yashash va ovqatlanish xizmatlari (79,5 mlrd. so‘mga) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (74,2 mlrd. so‘mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma‘lumot uchun: 2025- yilning mos davrida savdo xizmatlar – 1685,9 mlrd. so‘m, transpor xizmatlari 1569,7 mlrd. so‘m, moliyaviy xizmatlar – 1198,9 mlrd. so‘m, yashash va ovqatlanish xizmatlar 239,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

**2026- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>14 096,4</b>	<b>114,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	416,7	109,0
moliyaviy xizmatlar	1 550,2	126,5
transport xizmatlari	1 956,9	116,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 706,4	120,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	319,4	121,1
savdo xizmatlari	2 066,5	116,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	158,9	107,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	405,9	102,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	137,8	109,0
ijara xizmatlari	185,1	106,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	295,8	113,2
shaxsiy xizmatlar	319,3	108,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	83,9	129,2
boshqa xizmatlar	364,9	113,9

Eng yuqori o‘shish sur‘atlari moliyaviy xizmatlar 126,5 %, savdo sohasidagi xizmatlar 116,6 % va transport xizmatlari 116,1 % , qayd etildi.

Nisbatan pastroq o‘shish sur‘atlari ta’lim sohasidagi xizmatlar 102,3 %, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlari 107,8 % hamda sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 109,0 % da kuzatildi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining beshdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlari tashkil etdi. 2026- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 25,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 23,7 %, moliyaviy xizmatlari 18,8 % ni egallaydi.

2026- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 2066,5 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 25,0 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari 380,6 mlrd. so‘mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste‘mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

### **Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da**



**ulgurji savdo xizmatlari (*avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari*) 11,6**



**atomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar 12,4**



**chakana savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari 76,0**


Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.

2026- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 76,0 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,6 % ga yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 12,4 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

### 2026- yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da




2026- yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 416,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sishi 74,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar)ning ulushi 5,0 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 99,0 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 1,0 % ga to'g'ri keladi.


## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2026- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1550,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 126,5 % ni tashkil etdi.

## 2026- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (94,3 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter

texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2026- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 405,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 102,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 319,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,9 % ga yetdi.


### **2026- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>14 096,4</b>	<b>114,6</b>
Qarshi sh.	2 261,4	112,9
Shahrisabz sh.	379,8	124,0
G'uzor	334,4	116,4
Dehqonobod	257,1	114,6
Qamashi	534,6	116,7
Qarshi	607,4	123,9
Koson	587,2	115,5
Kitob	610,2	116,3
Mirishkor	354,7	115,7
Muborak	406,2	114,1
Nishon	336,5	117,6
Kasbi	377,8	116,5
Ko'kdala	159,6	117,1
Chiroqchi	294,7	117,0
Shahrisabz	310,2	116,3
Yakkabog'	449,4	117,3
Taqsimlanmagan hajm	5 835,3	113,3

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (2261,4 mlrd. so'm), Kitob (610,2 mlrd. so'm), Qarshi (607,4 mlrd. so'm), Qamashi (534,6 mlrd. so'm) va Muborak (406,2 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Ko'kdala (159,6 mlrd. so'm), Chiroqchi (294,7 mlrd. so'm), Dehqonobod (257,1 mlrd. so'm) va G'uzor (334,4 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


**2026- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Yuqori o'sish sur'atlari Shahrisabz shahar – 124,0 %, Qarshi tumani – 123,7 %, Nishon tumani – 117,6 Kasbi tumani 116,5 % va G'uzor tumanida 116,4 % kuzatildi.

Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda shahar va tumanlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**2026- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor  
xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**




- |              |             |           |                 |             |
|--------------|-------------|-----------|-----------------|-------------|
| ■ Boshqalar  | ■ Qarshi sh | ■ Kitob   | ■ Qarshi        | ■ Koson     |
| ■ Qamashi    | ■ Yakkabog' | ■ Muborak | ■ Shahrisabz sh | ■ Kasbi     |
| ■ Mirishkor  | ■ Nishon    | ■ G'uzor  | ■ Shahrisabz    | ■ Chiroqchi |
| ■ Dehqonobod | ■ Ko'kdala  |           |                 |             |

Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (16,0 %), Kitob (4,3 %), Qarshi (4,3 %) va Koson (4,2 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Ko‘kdala (1,1 %), Chiroqchi (2,1 %) va Dehqonobod (1,8 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati**  
(2026- yil yanvar-mart oylari uchun)




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi kuzatilmoqda. 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan hajm 613,0 ming so'mga oshib 3 784,9 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida yuqori ko'rsatkichga ega Qarshi shahrida 7373,2 ming so'm, Muborak tumanida 4179,3 ming so'mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Shahrisabz shahrida (121,9 %), Qarshi (120,8 %), va Yakkabog' tumanlarida (115,1 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Muborak (112,1 %), Dehqonobod (112,2 %), Koson (113,0 %) va Mirishkor (113,5 %) tumanlarida qayd etildi.

## 2026- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (506,1 mlrd. so'm), Koson (197,1 mlrd. so'm) va Kitob (181,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala (41,8 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2026- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 2066,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,5 % ni tashkil etdi.


**2026- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Qarshi (125,9 %), Kasbi. (122,0 %) va Muborak tumanlarida (118,2 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Koson (110,6 %) va Shahrisabz tumanlarida (111,3 %) qayd etildi.

**2026- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'rtasida Qarshi shahri (24,5 %) va Koson (9,5 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Ko'kdala (2,0 %) va G'uzor (2,8 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2026- yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi 1956,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,3 % ni tashkil etdi.

### 2026- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi sh (404,4 mlrd. so'm) va Kitob tumanida (134,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala (21,5 mlrd. so'm) qayd etildi.